

"Servantes" oteli unga ko'plarga ma'qul kelmaydigan jihatlari nimqorong'iligi, jimjiti ligi va xilvatligi bilan yoqib tushdi. Kemada tasodifan yo'liqqan bir yo'lovchi unga ushbu otelni maqtagan hamda musofirxonalar markazda joylashganligini aytgan edi; shunday qilib, Petrone Montevideoga kelib qoldi, to'g'ri ikkinchi qavat xolliga olib chikadigan vannali nomerni oldi. U taxtaga osig'ilq kalitlarga ko'zi tusharkan, otelning deyarli bo'm-bo'sh ekanligini payqdadi. Turuvchilar cho'ntaklariga solib jo'namasinlar uchun har bitta kalitga kattakon mis raqam ilingan edi.

Lift shundoq jurnallar hamda telefonlar ro'yxati qo'yilgan peshtaxta yonganasida, u qo'ngan xona eshididan atigi bir necha qadam narida to'xtardi. Suv juda issiq kelarkan, ba'zan qaynab ketayozadi, bu esa dim va g'ira-shira xonaga bir oz bo'lsa-da, jon bag'ishlaganday bo'ladi. Jajjigina darcha shundoq musofirxonaga tutash kinoteatr binosi tomiga olib chiqadi, ahyon-ahyon u yerda kaptar sayr qilib qoladi. Vannaxona kishining bahridilini ochar, derazasi ham kattaroq edi, lekin shunisi ham borki, bu yerga kirishing bilan ko'zing devorga tushadi, oynadan ko'zga tashlangan bir parcha osmon ham bu manzaraga noloyiq ko'rindi. Mebel unga ma'qul tushdi qutilar va tokchalar mo'l, kiyim ilgichlar ham ko'p bunaqasi kamdan-kam uchraydi.

Otel boshqaruvchisi daroz, oriq, kalbosh tilla gardishli ko'zoynak taqqan odam aksariyat urugvayliklar kabi uning ham ovozi baland edi, gapirganida jaranglab ketardi. U ikkinchi qavat juda tinch-osoyishtaligi, faqat qo'shni xona bandligi hamda nomerda istiqomat qilayotgan ayol xizmatdan kech qaytishini aytadi. Petrone kelganining ertasi kuni qo'shni ayol bilan to'qnashib qoldi; uni kattakon tangani ushlaganday qo'lida o'ynagan kalit raqamidan tanib oldi. Porte[1] ularning ikkovidan kalitlarini oldi, taxtaga ildi va ayol bilan xatlar haqida gaplashdi. Petrone razm solib, ayolning yoshgina va ko'rimsiz ekanligi va shu yerlik ayollar kabi yaxshi kiyinmaganligini sezdi.

Uning taxminiga ko'ra, qadama naqsh yetkazib beruvchilar bilan shartnoma tuzish uchun bir haftacha vaqt ketardi. Kechga borib u narsalarini olib, joyladi, qog'ozlarini taxladi, vannaga tushdi va bir aylanib kelay, deb ko'chaga chiqdi, so'ngra idora tomonga yo'l oldi. Qahvaxonadagi yengilgina mayxo'rliq bir xonadondagi ziyofat bilan o'tgan muzokaralar qoq yarim tunga qadar davom etdi. Uni otelga soat ikkilarda olib kelib tashlashdi. U azbaroyi charchaganidan birpasda dong qotib uxbab qoldi. Soat to'qqiz deganda o'rnidan turdi, ko'zlaridan hali uyqu ketmagan daqiqalarda yarim kechasi uni qandaydir go'dak yig'isi bezovta qilganiga xayoli ketdi.

Ketishi oldidan birpas porte bilan gaplashdi (porte nemischa talaffuzda gapirardi), undan avtobus yo'nalishlari hamda ko'chalar nomlarini so'rab olgach, nomeriga chiqadigan xollni loqayd ko'zdan kechirdi. Uniki va qo'shni nomer eshigi o'rtasiga qo'yilgan tagkursida Venera Milosskayaning g'aribona nusxasi turardi. Sal nariroqda, hammayoqdagiday kreslo va jurnal stollari qo'yilgan yon tomondan mehmonlarga mo'ljallangan mo'b'hzajgina xonaga o'tilardi. Odamlarning gangir-gungir ovozlari tingach, sukunat go'yo hovuchlab sochilgan kul singari mebellar va pol kataklariga to'kilib, singib ketardi. Lift sabrsizlik bilan qaldir-quldur qilar, xuddi shunday gazeta ham tajang shitirlar yoki gugurt "chirq" etib chaqilardi.

Yig'ilish kechga borib tarqadi. Petrone 18 iyul ko'chasi bo'ylab sayr etdi, so'ngra Mustaqillik maydonidagi qahvaxonada tamaddi qildi. Hamma ishlari ko'ngildagiday ketmoqda, ehtimol, u o'zi chamalaganiday, Argentinaga ertaroq qaytiishi ham mumkin edi. U Argentinada chiqadigan gazeta va bir quti ingichka qora sigaralardan sotib oldi-da, otelga jo'nadi. Otel yonidagi kinoteatrda ikkita tanish film ketayotgan ekan, ammo uning kino ko'rish tugul, biron yoqqa borishga ham istagi bo'lmadi. Boshqaruvchi u bilan so'rashdi-da, yana choyshablar kerak emasmi, deb so'radi. Ular gaplashib o'tirdilar, chekishdilar va xayrlashdilar.

Petrone yotish oldidan yonida olib kelgan qog'ozlarni tartibga soldi, keyin erinchoqlik bilan gazeta ko'ra boshladi. Mehmonxona jumjiti kishini ziq qilib yuboradi; ahyon-ahyon Soriano ko'chasidan o'tgan tramvaylar taraqa-turug'i bir lahzaga ana shu jumlikni buzardi-yu, yana atrofga toshday og'ir sukunat cho'kardi. Petrone xotirjamgina, yo'q, toqatsizlik bilan gazetani savatga uloqtirdi va loqayd ko'zguga qaragancha yechindi. Ancha eskip qolgan ko'zguli javon qo'shni nomeriga kiriladigan eshikni to'sib turardi.

Petrone bu eshikka ko'zi tushib, nega uni oldinroq payqamaganiga hayron bo'ldi. U shunda ushbu bino otel uchun mo'ljallanmaganligini anglati: bunaqa oddiy mehmonxonalar uchun ilgari idora va xonadon bo'lgan binolardan foydalilanadi. Ha, u qo'ngan joy borki (u safarga ko'p chiqardi), hammayoqda shunday berk eshiklar uchhardi, ba'zan eshiklar hech narsa bilan yashirilmagan, ba'zan esa javon, stol yoki kiyim ilgich bilan to'silgan bo'lardi, bu xuddi ko'kragini, qorninimi qo'llari bilan yashirgan ayol holatini eslatardi. Baribir yashirsang-yashirmsang, eshik joyida turar, javon ustidan qaqqayib ko'rini turardi. Qachonlardir shu eshikdan kirishgan, yopishgan, "tars" etkazib ochishgan, unga hayot bag'ishlashgan, hozir ham uning tavaqalari devorga o'xshamay, o'zining eshik ekanligini bildirib turardi. Petrone ana shu eshik ortidan boshqa javon qo'yilgandir, deb faraz qildi, balki qo'shni ayol ham ana shu eshik haqida o'layotgandir, deb o'yadi.

U horib-charchamagan bo'lsa-da, dong qotib uxbab qoldi va shu yotishida uch soat uxladi, biroq yuragida qandaydir g'ulg'ula bilan biror noxush voqeja yuz berganday uyg'onib ketdi. Turib, chiroqni yokdi, soatga qaradi ikki yarim bo'libdi, yana chiroqni o'chirdi. Shunda qo'shni nomerda chaqaloq yig'ladi.

Avvaliga hech nimaga tushunmadi, hattoki quvonib ham ketdi demak, kecha unga bola yig'isi tinchlik bermagan ekan-da.

Hammasi ravshan, yanglishmabdi, endi bema'lol uxbayversa bo'ladi. Lekin shu payt xayoliga boshqa fikr keldi; Petrone asta o'tirib oldi-da, chiroqni yoqmay, diqqat bilan quloi tutdi. Ha, yig'i o'sha yoqdan, eshik ortidan eshitilmokda edi. Yig'i eshik tirkishlaridan o'tib, karavot oyoqlariga kelib urilmokda edi. Bu nimasi bo'ldi? Uyoqda qanaqasiga bola bo'lsin, boshqaruvchi aytidi-ku axir, o'sha nomerda biringina ayol bor uning ham kuni ishxonada o'tadi. Balki ayol biror qarindoshiningmi yoki dugonasiningmi bolasini o'zi bilan birga olib kelgandir... Kecha-chi? Hozir u kecha ham aynan shunday, go'dak nolasidan boshqa hech bir narsaga o'xshamaydigan yig'ini eshitganligini anglati: go'yo biror joyi og'riyotganday, ingillagan, uzib-uzib, xo'rsinib arzi dod qilgan go'dak ovozi edi bu. Balki go'dak bir necha oylik bo'lgandir odatda yangi tug'ilgan chaqaloqlar big'illab yig'lab, qotib qoladi.

Petrone nima uchundir go'dakni albatta o'g'il bola deb, nochorgina, nimjon, arang qimirlaydigan, burishib-tirishgan chaqaloq deb tasavvur qildi. Mana, u kechalari zorlanadi, o'zi kasal, birovning e'tiborini tortmaygina asta ingillaydi. Agar ana shu eshik bo'lmaganida edi, bola haqida hech kim hech nimani bilmasdi bolaning ohu nolasiga hech qanday yurak dosh berolmaydi, buni ta'riflab ham bo'lmaydi.

Petrone nonushta qilib, sigara chekarkan, yana bolaga xayoli ketdi. Aloq-chaloq o'tgan tunlar kunduzi ishlashga xalaqit beradi, yana-tag'in yig'i uni kechasi ikki marta uyg'otib yubordi. Ikkinci marta avvalgisidan battarroq bo'ldi: ayolning juda past, jo'rttaga qilganday, aniq-tiniq ovozi yanada xalaqit berdi. Go'dak ovozi bir daqiqaga tindi, yana qisqa-qisqa ingroq rasmana achchiq arzi dodga aylandi. Yana ayol tushunarsiz so'zlarni pichirladi, jismi-joni azobda bo'lgan, hayot yo'lim talvasasida yotgan chaqalog'inibar onalar kabi obbolab, ovutdi, duo qildi, jonini qo'ygin, deya Xudodan so'radi.

"Hammasi joyida, ammo-lekin boshqaruvchi meni boplab laqillatibdi", deb o'yaldi Petrone xonadan chiqarkan. Bu yolg'on uni azbaroyi g'azablantirib yubordi, buni yashirib ham o'tirmadi. Biroq boshqaruvchi hayratidan yoqa ushladi.

Bola deysizmi? Yanglishmayapsizmikin. Mehmonxonamizda emizikli bolalar yo'q. Yoningizdag'i nomerda yolg'iz xonim turadi, men buni sizga aytgandim-ku axir.

Petrone darrov javob qaytarmadi. Bu ikki narsadan biri bo'lishi mumkin: yo haftafahm boshqaruvchi nayrang qilyapti, yoki bu yerning akustikasi qo'pol hazil qilib, u bilan o'ynashyapti. Suhbatdoshi xuddi bularning bari uning ham g'ashiga tekkanday, zimdan ko'z qirini tashladi. "Ehtimol meni qo'rqqanidan boshqa nomeraga o'tkazinglar, deb talab qilishga jur'at qilolmayapti, deb xayol qilayotgandir", deb o'yldi Petrone. Qat'ian barini inkor qilib turishsa, gapingni ma'qullatishdan foyda yo'q. Petrone yelkasini qisdi va gazeta so'radi.

Balki tushdir, dedi u. Buni gapirishga, umuman, tushuntirib berishga to'g'ri kelgani unga yoqmadni.

Kabareda kishi o'lguday xit bo'lib, zerikdi, dasturxon atrofida o'tirgan ikki mezbon mulozamati juda sust bo'ldi, shu sababli Petrone charchadim, deya bahona qildi-yu, mehmonxona tomon ravona bo'ldi. Sharhnomaga ertasi kuni imzo chekadigan bo'ldilar: umuman olganda, u ishlarini bitirdi.

Vestibyul shunday jimjiti ediki, u o'zi ham bilmagan holda oyoqlari uchida yurdi. Karavotda oqshomgi gazeta va uyidan jo'natilgan maktub yotardi. U xotinining dastxatini tanidi.

Petrone uyquga yotishdan avval javonni va undan tepada turtib chiqib turgan eshikni uzoq ko'zdan kechirdi. Agar javon ustiga ikkita chamadon ko'yilsa, tamom, devor ko'zdan yo'qoladi, keyin ovozlar ham uncha eshitilmaydi. Bu paytda, avvalgiday, sukunat hukm suradi. Otel uyquga ketgandi; narsa-buyumlar ham, odamlar ham uyquda edi. Lekin ko'ngli bezovta Petrone uchun bari nimagadir ishora qilganday bu yerda qandaydir noxushlik borday, hamma ham uxlamayotganday, ana shu sukunat zamiridan nimadir kutayotganday tuyulib ketdi. Ichidagi ta'rif qilib bo'lmas qo'rquv uyg'a ham, odamlarga ham ko'chib o'tayotganga o'xshardi, ular ham o'z nomerlarida biqinib, uxlamay o'tiribdilar. Qanday tentaklik-a!

Soat uchda bola yig'isini boshladi, Petrone bunga uncha ajablanmadni. U qaddini bir oz ko'tardi, balki qorovulni chaqirmsammikin, deb o'yldi bunaqa sharoitda uxbab bo'lmasligiga u guvoh bo'la qolsin. Bola asta yig'lar, ovozi arang eshitilardi, goho bir oz jimb qolardi, biroq Petrone yig'i hozir yana avjiga chiqishini bilardi. Oradan o'n-o'n ikki soniya imillab o'tdi, bir on nimadir xir-xir qildi, keyin zaifgina chiy-chiy ovoz birdan quloqni teshib yuborguday big'illadi.

Petrone chekdi va ayol chaqalog'in tebratib ovutsin, deb devorni asta chertsammikin, deb xayol ham qildi. Shunda birdan ayolga ham, boshqaruvchiga ham ishonolmasligini tushunib yetdi ajablanarli tomoni shunda ediki, u boshqaruvchining aldaganiha ham ishonmasdi. Bolasini sabot bilan ovutib, asta koyigan ayol ovozi go'dak yig'isini bosib ketardi. Ayol chaqalog'in allalab, ovutmoqda edi, shunda Petrone uning karavotcha tepasida qanday o'tirgan yoki belanchak tebratayotgani, yo bolasini qanday bag'riga olayotganini tasavvur qildi. Lekin u boshqaruvchining ishontirib aytgan so'zlar his-tuyg'ular guvohligining ustun chiqishiga olib kelganligini sira aqliga sig'dirolmayotgan edi. Vaqt o'tmokda, go'dak zorlanishi goh tinib, goh bu nola ayolning pichir-pichirini bosib ketmoqda edi. Petronening nazarida, bu maynavozchilikka, bir o'yinga, yovvoyilarcha bema'ni o'yinga o'xshab ketdi. Shunda u pana-panada qo'g'irchoq o'ynaydigan befarzand ayollar, ularning jiyanlari yoki jomivorlarni yaxshi ko'rib, shular bilan ovunishlaridan ko'ra xatarli bo'lgan, onalikni ixtiyor etgan, shunga intilgan, xayoliy, yolg'onidakam onalik haqida eshitgan gaplari, mishmishlarni xotirladi. Ayolning o'zi, o'zginasiz zorlanyapti, nola qilyapti, ingrayapti bola esa yo'q. U yo'q bolani allalab, belanchak tebratyapti, u bo'm-bo'shilqni allayapti, chinakamiga ko'zyosh to'kyapti, axir shunday ayol riyokorlik qila olarmikin uning ko'nglida qayg'u, bo'm-bo'sh xonada qayg'u bo'lsa, beparvo oqarib kelayotgan tongni qayg'u bilan qarshi olsa... Petrone chiroqni yodqi u xlabelmadi keyin o'yldi: nima qilsa bo'ladi? Butunlay ruhi tushib ketdi, ana shu o'yinga, soxtalikka ro'baro' kelib ham ruhi tushmasinmi? Bu voqeana shu tong otishi oldida ro'y berdi, bu voqeana haqiqat va ayni paytda toqat qilib bo'lmas darajada yolg'on edi. Buning tagiga yetish uchun devorni taqillatish kamlik qilardi. U hali uyqudan uyg'organicha yo'q, garchand yaxshi uxlolmagan bo'lsa-da, birdan astagina chang eshik qolib, javonni surayotganini payqadi.

U oyoq yalang, pijamada xuddi mingoyoq kabi butun badoni bilan eshikka qapishib oldi va chang bosib yotgan qarag'ay og'och tavaqalarga lablarini bosdi va xuddi anavi ko'rinnmas chaqaloq kabi chirillab yig'lab yubordi. U yanada qattiqroq ho'ngrab yig'ladi, yig'layverib, nafasi og'ziga tiqildi, yig'layverib qotib qoldi. Birdan bir lahma ichida shippaklarning sharaqlashi va bo'rondan darak bergen, go'yo tarang tor uzelgan kabi ayol kishining hayqirib yuborgan oniy faryodi qulog'iga chalindi.

Soat o'nlardan oshgach, porte yonidan o'tdi. Bundan oldinroq, soat to'qqizlarda u porte hamda yana bir ayolning ovozini eshitdi, yana allakim devor ortida narsalarni surdi. Hozir lift oldida safar qutisi va ikkita katta chamadonga ko'zi tushdi. Boshqaruvchi, aniq dovdirab qoldi.

Uyquga qondingizmi? deb so'radi u shunchaki xizmat yuzasidan, o'zining e'tiborsizligini zo'rg'a yashirib.

Petrone yelkasini qisdi. Surishtirib, bilishining hojati yo'q, baribir ertaga ketadi.

Bugun tinch u xlabeldigan bo'ldingiz, dedi boshqaruvchi narsalarga imo qilib, qo'shningiz bir soatdan keyin jo'nab ketyapti.

Boshqaruvchi javob kutdi, shunda Petrone uni nigohi bilan ma'qulladi.

Shu yerda tappa-tuzuk yashab turuvdi, mana ketyapti. Ayollarga tushunib bo'lmaydi o'zi.

To'g'ri, dedi Petrone. Ularni tushunish qiyin.

Garchand u soppa-sog' bo'lsa-da, ko'chada chayqalib ketdi. U achchiq qahva ho'plarkan, ishlarini unutib, yop-yorug' kunduzni ham sezmay, hamon o'sha haqda o'yalamoqda edi. Qo'shni nomerdag'i ayol uning, Petronening dastidan qo'rquvdan talvasaga tushib, ketib qoldi. "Bu yerda tappa-tuzuk yashab turuvdi..." Ehtimol kasaldir, ammo beozor edi bechora. Ayol emas, uning o'zi ketishi kerak edi aslida. Ayol bilan gaplashib ko'rish, kechirim so'rash, qolishga ko'ndirish, birovgaga miq etmaslikka so'z berish kerak. U orqasiga qaytdi, to'xtadi. Yo'q, bunday qilsa, telbalik bo'ladi, ayol uning so'zlarini to'g'ri tushunmaydi. Yana-tag'in ishbilarmonlar bilan uchrashuvga boradigan vaqt ham bo'lди ularni kuttirib qo'yish noqulay. Battar bo'lsin, bilganini qilmaydimi menga desa. Qip-qizil jinni. Boshqa otelni topadi-da, yo'q chaqalog'in allalab o'tiraveradi.

Tun yana uni azobga qo'ydi, jimjilikka-ku, toqat qilib bo'lmasdi. U qaytishida beixtiyor kalitlar taxtasiga qaradi, unda qo'shni nomer kaliti ko'rinnmadni. To'sig'i ortida esnab o'tirgan porte bilan birpas gaplashib, nomeriga keldi, u xlabel olishiga uncha ko'zi yetmay, stolga oqshomgi gazetalar va yangi detektiv kitobni qo'ydi, chamadonini joyladi, qog'ozlarini tartibga soldi. Havo issiq bo'ldi, u derazani lang ochdi. Ozoda, sarishta to'shak unga noqulay tuyuldi. Nihoyat atrofga sukul cho'kdi, u tarashaday qotib uxlashi mumkin edi lekin xlabelmadi: to'shakda uyoqdan-buyoqqa ag'darildi, osoyishtalik o'sha, o'zi shunday ustomonlik bilan erishgan, shunday intiqom bilan qaytarib berilgan sukunat uni endi ezgandan ezmoqda edi! Achchiq, istehzoli ovoz qulog'iga, go'dak yig'isisiz xlabel olmaysan ham, uyg'onolmaysan ham, deya shivirladi. Yig'i yetishmayotgan edi, oradan bir oz vaqt o'tdi, u mixlab tashlangan eshik ortida zaif, qadrdon ovozni eshitdi, shunda qo'rquv aralash, qochish istagiga hamohang ayolning aldamanligini anglati, chaqalog'im nihoyat yig'isini bas qilarmikin, deya bolasini allalab, ovutib, belanchagini tebratgan ayol

This is not registered version of TotalDocConverter
haqida bo'lib qo'shilgan bo'lgan.
"Yoshlik" jurnalining 2010 yil, 1-sonidan olindi.

Б†‘ Mehmonxona shveytsari.